

BARQAROR RIVOJLANISHNI MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARGA SINGDIRISH

Esonova Fotima Shoyidal qizi

Annotatsiya. Bolalarning maktabgacha yoshning oxiriga borib erishgan rivojlanish darajasi ular bilan olib boriladigan ta'lism-tarbiya ishini murakkablashtirish imkonini beradi. Ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish faol ish jarayonida yuz beradi. Faollik bolaga xos xususiyatdir. Tarbiya jarayonidagi faollik asosida faoliyatning har xir turlari shakllantirish kerak buladi.

Annotation. The level of development that children achieve by the end of preschool age makes it possible to complicate the educational and educational work carried out with them. Mastering socio-historical experience takes place in the process of active work. Activity is a characteristic of a child. On the basis of activity in the process of upbringing, each type of activity should be formed slurry.

Аннотация. Уровень развития детей, достигнутый к концу дошкольного возраста, позволяет усложнить проводимую с ними учебно-воспитательную работу. Усвоение общественно-исторического опыта происходит в процессе активной работы. Активность - свойство ребенка. На основе активности в процессе воспитания необходимо формировать каждый вид деятельности.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lism tizimi, tashkilot, yosh avlod, aqliyintellektual, estetik, jismoniy, ma'naviy salohiyat, maktabga tayyorlash, takomillashtirish.

Keywords. Preschool education system, organization, younger generation, intellectual, aesthetic, physical, spiritual potential, preparation for school, improvement.

Ключевые слова. Система дошкольного образования, организация, подрастающее поколение, психоинтеллектуальный, эстетический, физический, духовный потенциал, подготовка к школе, совершенствование.

Kirish. «Shaxs» - kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lism sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchidir. Shaxs – muayyan jamiyatning a'zosidir. Shaxsning kamol topishida va uning xulqida ijtimoiy va biologik omillarning ta'sir kuchi hamisha ham bir xil bo'lavermaydi. Chunki uning xulqiga, munosabatlariga vaziyat ham ta'sir etadi. Shaxsning kamolga yetishida nasl-irsiyat, ijtimoiy muhit, ta'lism-tarbiya muhim ahamiyatga ega. Shaxs qaysi jamiyatda yashasa, o'sha jamiyat hayotidagi qonun-qoidalarga asoslanib kamol topadi. Har bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon bo'ladi. U o'zining xarakteri, qiziqishi, qobiliyati, aqliy rivojlanganlik darajasi, ehtiyoj va mehnat faoliyatiga munosabati bilan farqlanadi. Shaxsning shakllanishi kishilik jamiyatni tomonidan yaratilgan ijtimoiy-

tarixiy tajribani o‘zlashtirish, ta’lim-tarbiya berish orqali amalga oshiriladi. Bu har xil faoliyatlarda yuzaga keladi. Bolalar egallashlari lozim bo‘lgan mazmunni tanlash, uning egallab olishiga rahbarlik qilish kattlar tomonidan ta’lim-tarbiya jarayonda amalga oshiriladi. Tarbiya va ta’limning mazmuni, vositalari, metodlari, bolaning rivojlanish jarayoni ularning yoshi bilan izohlanadi. Jumladan, kichik yoshdagi bolalar bilan ish olib borilganda ularning mustaqil hayotga butunlay moslashmaganligi hisobga olinadi. Bolalarning maktabgacha yoshning oxiriga borib erishgan rivojlanish darjasini ular bilan olib boriladigan ta’lim-tarbiya ishini murakkablashtirish imkonini beradi. Ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirish faol ish jarayonida yuz beradi. Faollik bolaga xos xususiyatdir. Tarbiya jarayonidagi faollik asosida faoliyatning har xir turlari shakllanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va tarbiyasi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va tarbiyasi Ta’lim tarbiyaning roli Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va tarbiyasi Ta’lim tarbiyaning roli Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdanhar tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish maktabgacha ta’limmuassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning mavjud tartibini qaytako‘rib chiqishni hamda maktabgacha ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishning zamonaviyusullarini joriy etishni talab qiladi. Ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiyligi boshlang‘ich ta’limgatayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi lozim. Bolaning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar IRSIYAT Atrof-muhit IRSIYAT irsiyat deganda bolalar genetik dasturiga kiritilgan muayyan xislat va xususiyatlarning ota-onadan bolaga turli xil o‘xshashlik, xususiyatlarning o‘tishi tushuniladi. Irsiyatga ko‘ra bolaga ota-onasidan inson organizmi, asab tizimi, miya va xis tuyg‘u organlari, shuningdek, qomat tuzilishi, soch teri rangi o‘tadi. Bular insonni boshqa insonlardan ajratib turuvchi tashqi omillar hisoblanadi. Shuningdek irsiyat bo‘yicha nerv faoliyatini rivojlantiradigan nerv xususiyatlari ham o‘tishi mumkin. Irsiyat bolaning tabiiy xususiyatlari asosida biror bir faoliyat sohasida muayyan qobiliyatlarining shakllanishini ko‘zda tutadi A TROF-MUHIT Inson bo‘lib etishish uchun faqatgina biologik irsiyatning o‘zi kifoya emas. Inson faqat sotsiolizatsiya jarayonida, ya’ni muloqotda, boshqa insonlar bilan o‘zaro ta’sirda shaxs bo‘lib etishadi. Inson jamiyatidan tashqarida ma’naviy, ijtimoiy, psixik rivojlanishi sodir bo‘la olmaydi. Bu fikrni barchaga ma’lum hollar, ya’ni inson bolasi hayvonlar orasida o’sgani yanada mustahkamlaydi. IJTIMOIY MOSLASHUV ijtimoiy moslashuv bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvining sharti va natijasi hisoblanadi. Bu asosan uch yo‘nalishda olib boriladi: faoliyat, muomala va anglash. Faoliyat sohasida bolada faoliyat turlarining kengayishi, faoliyatning zaruriy shakl va vositalarini qo‘lga kiritishi, muomala sohasida muomala doirasining kengayishi, uning mazmunining

chuqurlashishi, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirish sodir bo'ladi. Anglash sohasida o'z "men"i obrazini shakllantirish, o'zining ijtimoiy mansublik va ijtimoiy o'rnini anglash ro'y beradi. Bu jarayonlarning barchasini tarbiya tartibga soladi. Yosh bolalar davlat himoyasida O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" qizyonunining 45-moddasida maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga qarab turish vaularni ta'minlash berilgan. Davlat maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarning, ayniqsayetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning, sog'lig'ining holatini tuzatishga, uzoq vaqt davolanishga hamda reabilitatsiya qilishgamuhtoj bo'lgan bolalarning, shuningdek kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalardagibolalarning ijtimoiy himoya qilinishi va qo'llab-quvvatlanishini ta'minlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va tarbiyasi. Bolaning faolligi ijtimoiy tarixiy tajribani o'zlashtirishga yordam beradi, buning asosida roli uning bilish, ko'rgazmali, o'yin, eng oddiy mehnat va o'quv kabi xilma-xil faoliyat turlari, shuningdek, muomalasi shakllanadi. Bola u yoki bu faoliyatni o'zlashtirib, faollik ko'rsatadi, ayni paytda shu faoliyat bilan bog'liq bilimlar, malaka, ko'nikmalarni o'zlashtiradi, Shu asosda unda xilma-xil qobiliyatlar va shaxs xususiyatlari shakllanadi. Faoliyat – kishining moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratish borasidagi hamda shaxsiy va ijtimoiy sohadagi ma'lum bir maqsad sari qiladigan xattiharakatlar majmuasidir. Faoliyat – insonni belgilangan (rejalashtirilgan) maqsadga erishishdir. Faoliyat – bir narsani aniqlash uchun biror narsa qilish xohishi (jarayoni). Bolaning faoliyatdagi faol mavqeい uni faqat tarbiya ob'ektiga emas, shu bilan birga tarbiya sub'ektiga ham aylantirdi. Bu bolani tarbiyalash va rivojlantirishda faoliyatning yetakchilik rolini belgilaydi. Har bir faoliyat turining mazmuni va tuzilishining ijtimoiy-tarixiy tabiatni har bir yosh avlodga ob'ektiv ravishda berilgan bo'ladi. Odamlarning ishlab chiqarish quollarida, bilimlarda, san'atda, axloqda va hokazolarda jamlangan sermahsul faoliyati natijalari birgalikdagi faoliyatda va muloqotda bo'lgan paytda tarbiya va ta'lim vositasida katta avloddan kichiklarga beriladi. Odam shaxsining ijtimoiy tabiatni ana shunday shakllanadi. Tarbiyachi tarbiyalanuvchida kuchli faoliyat ehtiyojini uyg'otib, yangi hulk-atvor sifatlarini shakllantirishga yordam bergandagina kutilgan natijalarga erishadi

Muhokama va natijalar. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish bo'yicha keng miqyosdagi ishlarning amalga oshirilishi natijasida bugungi kunda mamlakatimiz maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ilmiy va pedagogik tarkib tubdan o'zgardi, zamonaviy o'quv-dasturiy asosga, moddiy-texnik bazaga ega bo'lgan ta'lim maskanlari sifatida samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatining pedagogik-psixologik asoslari, davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda ularning muqobil turlarini tashkil etishning pedagogik shartsharoitlari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning xukukiy-

me'yoriy asoslari, boshqarishda jahon tajribasi va uni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish texnologiyalarini o'rganish va shu asosda choratadbirlarni belgilash, amaliyotga joriy qilish ishlari jadallahshmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimining yangi avlod rahbarlarini shakllantirish masalasi ham kundalik dolzarb ahamiyat kasb etuvchi masalalar sirasiga kiradi. Bunda rahbarning muvofiqlashtirish, rejalashtirish, tartibga solish, nazorat qilish va baholash vazifalari bilan uyg'unlikda bajarilishi lozim bo'lgan vazifalari to'g'risida e'tirof etilgan funktsiyalar bolalarning intellektual jihatdan voyaga yetishiga, ma'naviy barkamol shaxs bo'lib shakllanishiga va pedagog xodimlarning ilmiy-ma'naviy jihatdan o'sishiga, siyosiy va fuqarolik pozitsiyasining mustahkamlanishiga olib keladi. MTT pedagog xodimlaridan keng bilimdonlik, puxta amaliy tayyorgarlik, yuksak pedagogik mahorat, kompetentlik va ijodkorlik talab etiladi. Maktabgacha ta'lim jarayonida insonparvarlik omilini ta'minlaydigan ustozlarning shaxsiy sifatlariga quyidagilar kiradi: talabchanlik, haqqoniylik, halollik, mehribonlik, xushmomalalik. Ushbu sifatlar pedagogning ta'lim-tarbiya oluvchilar uchun ahamiyatini belgilashi kerak. Zero, shaxsiy sifatlar o'qitish va tarbiyalash mahoratiga ta'sir ko'rsatadi. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev o'zining "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz" kitobida: "O'z xalqiga fidoyi, biz boshlagan ishlarni davom ettirishga qodir bo'lgan, har tomonlama yetuk rahbar oldida dolzarb vazifa – kelgusi avlodni komil inson qilib tarbiyalash vazifasi turibdi"- degan fikrni e'tirof etadilar. Darhaqiqat, XXI asrda ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlar rivojida inson aql zakovati va ma'naviyati asosiy muvofiqlashtiruvchi, rivojlantiruvchi omil va vosita ekanligi tobora namoyon bo'lmoska. SHuning uchun insonparvarlik bozor iqtisodiyoti asosida huquqiy, demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurilishining bosh tamoyili sifatida maydonga chiqdi. Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifati – tarbiyachi va xodimlarning kasbiy rivojlanishi tavsifi bo'lib, zamonaviy bosqichida iqtisodiy taraqqiyot talablariga mos kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli yurituvchi mutaxassis qobiliyati va ish faoliyati bilan belgilanishi e'tirof etiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'quv faoliyatining sifati o'quv jarayonini rejalashtirish, uni amalga oshirish, o'quv reja, dasturlarining mazmun mohiyati bilan emas, balki bolalarning olgan bilimlari, malaka va ko'nikmalari, mustaqil ravishda olgan bilimlari bilan bog'liq ta'lim natijasi sifati bilan belgilanmoqda. Har tomonlama taraqqiy etgan, aqlan va ma'nab barkamol, jismonan va ruhan tetik farzandlarni maktabgacha tarbiya tashkilotlarida kamol toptirish ahamiyati, Vatanimizning ravnaqi bugungi kunda yosh avlodlarga bergen ta'lim sifati va tarbiya mohiyati bilan chambarchas bog'liqligi alohida dolzarblik kasb etadi. Mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar buyuk ma'naviy fazilatlarga ega, insoniy fazilatlarni o'zida mo'jassamlashtirgan, yetuk kadr sifatida faoliyat yuritishga zamin hozirlaydi/

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugungi kunda davlat va nodavlat maktabgacha ta'lif tashkilotlarida ta'lif va tarbiya sifatini takomillashtirish muammosini alohida tadqiqot predmeti sifatida o'rganish ehtiyoji sezilmoqda. Muammoning yechimini topish uchun: - davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya tashkilotlari xodimlarining malakasini oshirishda «tarbiya kvalimetriyasi» va «ta'lif kvalimetriyasi» tushunchalarini ilmiy jihatdan tavsiflash; davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya tashkilotlari boshqarishning metodologik va nazariy asoslarini sifatli menejment nuqtai nazaridan tadqiq qilish; davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya tashkilotlariga qo'yiladigan davlat talablarini tabaqlashtirilgan yondashuv asosida takomillashtirish; davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya tashkilotlari xodimlarining malaka oshirishdan keyingi faoliyati samaradorligi monitoringini joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish; davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya tashkilotlari tarbiyalanuvchilari iqtidorini aniqlash va rivojlantirishga mo'ljallangan metodik qo'llanmalar yaratish va amaliyatga tatbiq etish; - davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya tashkilotlarida sifat menejmenti tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish lozim. Davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya tashkilotlari xodimlarining faoliyatini kvalimetriya asosida baholash, kasbiy faoliyat natijasi, tarbiyalanuvchilarning intellektual darajasi va shaxsiy rivojlanishi mezonlariga asoslangan holda takomillashtirishga qaratish lozim. Shunday qilib, ta'lif-tarbiya sifatini oshirish jarayonida yangi mazmun va mohiyatga ega bo'lgan insonparvarlik tamoyillariga asoslangan, yaratuvchanlik, ijodkorlikka intilish hissi bilan yo'g'rilgan ta'lif komil inson shaxsini yetuklikka yo'naltiradi. Binobarin, O'zbekistonda maktabgacha ta'lif tashkilotlarida olib borilayotgan islohotlar ta'lif-tarbiyaning maqsadini yangi yo'nalishga burdi. Demak, ta'lif-tarbiyaning maqsadi butunlay yangilandi, unga mos holda mazmunning ham, pedagogik jarayonning ham yangilanishi tabiiydir. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab bergenligi tufayli shaxs manfaatlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
- «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi. –T.: O'zbekiston, 2010.
- O'zbekiston Respublikasining «Ta'lif to'g'risida»gi Qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: Sharq, 1997.
- A.Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. –T.: O'qituvchi, 1992.